

INSON HUQUQLARINING FUQAROLIK JAMIYATIDAGI O'RNI

THE ROLE OF HUMAN RIGHTS IN CIVIL SOCIETY

РОЛЬ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Alisherova Bahora Alisher qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey
1-bosqich o'quvchisi*

Annotatsiya: *Bu maqola asosan, "huquq" atamasining kelib chiqishi va tarixiy shakllanishi bosqichlaridan, shuningdek inson huquqlarining fuqarolik jamiyatdagi o'rni tushunchasidan iborat.*

Annotatsiya: *Данная статья в основном состоит из происхождения и этапов исторического становления термина "право", а также концепции роли прав человека в гражданском обществе.*

Abstract: *This article mainly consist of the origin and stages of historical formation of the term "right", as well as the concept of the role of human rights in civil society.*

Kalit so'zlar: *davlat va huquq, jamiyat, konstitutsiya, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi*

Ключевые слова: *государство и право, общество, конституция Всеобщая декларация прав человека*

Key words: *state and law, society, constitution, Universal declaration of human rights*

Inson huquqlari tushunchasiga ta'rif berishdan avval, "huquq" atamasiga hamda jamiyat va davlat tushunchasiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. "Huquq" atamasi o'z navbatida davlat shakllanishi orqali vujudga kelgan. Tarixdan ma'lumki, davlatlarning yuzaga kelishi murakkab jarayon bo'lib, turli xalqlarda o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Davlat va huquq hodisalarini jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi mahsuli hisoblanadi. Davlat va huquq jamiyat ichida yuzaga keladi va rivojlanadi. Shu bois davlat va huquq hodisalarini o'rganishda jamiyat va uning rivojlanish bosqichlari, turli hududlarda namoyon bo'lish shakllari, uning rivojiga ta'sir qiluvchi omillar, jamiyat va siyosiy tizimi bilan bog'liq masalalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. "Jamiyat" so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qiladigan bo'lsak, u arabcha so'zdan olingan bo'lib "jamo", "birlashgan", "jam bo'lish" degan ma'nolarni anglatadi. Jamiyat – bu tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsulidir deb ta'riflangan.¹

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida undan ajralib chiqqan. O'z navbatida "jamiyat" va "davlat" tushunchalari aynan bir tushunchalar emas va ularni albatta farqlash lozim. Davlat jamiyatning faqat siyosiy, uning bir elementidir. Davlat tashkil topishi bu – insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan sivilizatsiya tomon burulishi edi. Dunyoda birinchi

sivilizatsiyalashgan davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi Sharqda miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar davriga to'g'ri keladi. Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan bo'lib, u o'zining shakillanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'llarni bosib o'tgan. Dastlabki bosqichda davlat boshqaruvi, eng avvalo, majburlash usuliga asoslangan. Davlat siyosiy tashkilot bo'lib, u vujudga kelishi bilan huquq ham shakillana borgan.

Huquq- davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umummajburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Aynan, mana shu jumlagi e'tibor beraylik. Aniqroq qilib aytganda, bu tushuncha jamiyatda harakatlanayotgan fuqaroning asosiy huquqlari va erkinliklarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida :

Biz O'zbekistonning yagona xalqi ,

inson huquq va erkinliklariga , milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib,

inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni , ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatimizni anglagan holda,

davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib,

mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab – avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib,

xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda,

O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo , qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik , o'zaro qo'llab quvvatlash , tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib,

fuqarolarning munosib hayot kechirishini , millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab – yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda,

ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz – deya bayon qilingan. Bu ma'lumotda ko'rinib turibdiki, Konstitutsiyamizning bosh maqsadi ham fuqarolarning huquqlari va erkinliklaridir.

Inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari 2023-yilning 1-mayida kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning II bo'limida o'z ifodasini topgan. Avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan

hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi shart" deyilgan. Insonning huquqlari va erkinliklari degan tushunchasi mana shu moddada aks etgan.

Insonning huquq va erkinliklari Konstitutsiyaga binoan bir necha turlarga bo'linadi:

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar.
2. Siyosiy huquqlar.
3. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar.

1. Insonning eng asosiy huquqi, bu uning shaxsiy huquqidir. Bu huquq Konstitutsiyaning 25-moddadan 35-moddalarni o'z ichiga oladi. 25-moddada aytilishicha "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi". Albatta huquqlar ichidagi bu huquq, moddada aytilganidek ajralmas huquqdir. Shuningdek shaxsiy huquqlarga: "har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanishi, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi, har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, o'zi xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi" ham aytib o'tilgan.

2. Siyosiy huquqlar va erkinliklar fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri. Siyosiy huquq va erkinliklar fuqarolarga mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida qatnashish imkonini beradi. Bu huquq va erkinliklar jamiyat va davlat boshqaruvida qatnashish huquqi, saylov huquqi, qonunlarga muvofiq, jamoat birlashmalariga uyishish, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish, axborot erkinligi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, ariza, taklif va shikoyatlar berish orqali davlat organlari, muassasalar yoki xalq vakillarga murojaat qilish huquqi kabilarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston fuqarolarining siyosiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VIII bobida, "Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining referendum to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risida" gi qonunlarda belgilab qo'yilgan.

3. Ijtimoiy -iqtisodiy huquqlar insonning yashash sharoitlarini, o'z qobiliyatlaridan foydalanishini, insonning avtonomligi va jamiyatdagi iqtisodiy aloqalarni, shuningdek uning ijtimoiy himoyalanganligini belgilaydi.

Madaniy huquqlar insonning konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohada o'zini namoyon qilish uchun imkoniyat yaratadigan inson huquqlari va erkinliklarining maxsus majmuidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar kafolatlangan:

- shaxsiy mulkka ega bo'lish huquqi (41-modda);
- mehnat va dam olish huquqi (42, 45-moddalar);
- ijtimoiy ta'minot olish huquqi (46-modda);
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (48-modda);
- bilim olish huquqi (50-modda);
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish erkinligi (53-modda);

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari – inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek, qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat nomidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar, shu jumladan shart – sharoitlar majmui hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevori barpo etildi, qonun ustuvorligi va inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan boshqa ajralmas huquqlari ta'minlandi. O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017 — 2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash sohasida aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lgan 2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda O'zbekistonning taraqqiyoti, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini belgilab bergan. Shuningdek Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), hamda eng asosiysi bo'lmish 1948- yil 10- dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolyutsiya ko'rsatmasi orqali qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi mamlakatimizda inson va fuqarolarning huquqlarini himoyalashning asosiy tarmoqlari sifatida e'tirof etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur. Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy

huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish — erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon etilgan. Unga ko'ra, umumhurat va rioya qilishi shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

Shaxsiy huquqlar orasida avvalo har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta'kidlangan. Deklaratsiyaning boshqa qoidalari esa mazkur huquqlarni to'ldiradi. Xususan, hech kim qullikda, zabun holatda tutilmasligi, qiynoqqa yoxud ayovsiz, g'ayriinsoniy, odam sha'nini yerga uradigan muomala va jazoga duchor etilmasligi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinmasligi, ushlab turilmasligi lozim ekanligi qayd etilgan. Shaxs huquqlari sirasiga shaxsiy va oilaviy hayotning, turar joyning daxlsizligi huquqi, yozishmalarni sir saqlash huquqi, o'z sha'ni va obro'sini himoya qilish huquqi, odil sudlov tomonidan muhofaza etilish huquqi kabilar kiradi (3— 5, 8—12-moddalar).

Deklaratsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta'kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi; e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig'ilishlar o'tkazish hamda uyushmalarga a'zo bo'lish huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy va teng saylash huquqi; erkin ravishda ko'chib yurish hamda o'ziga turar joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo'yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi (13—21-moddalar).

Mehnat qilish huquqi, adolatli va yetarli ravishda taqdirlanish hamda mehnat uchun teng mehnat haqi olish huquqi, kasaba uyushmalari tuzish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta'minlanish huquqi; onalik va bolalikni alohida himoyalash huquqi; ta'lim olish va madaniy hayotda qatnashish huquqi (22—27-moddalar) insonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hisoblanadi.

Deklaratsiyada inson manfaatlarining ustuvorligi quyidagi tamoyillarda o'z aksini topgan: inson huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlarining tengligi, inson erkinliklari, inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni, inson huquqlarini ta'minlashning adolatligi. Deklaratsiyada e'lon etilgan mazkur inson huquqlariga oid tamoyillarga ko'ra barcha kishilar erkin tug'iladi va o'z qadr-qimmatini hamda huquqlari jihatdan teng bo'lib, ular qonun oldida teng va qonun tomonidan bab-baravar himoyalash huquqiga ega (1, 2, 7-moddalar).³

Mazkur Deklaratsiya qoidalari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan inson huquqlarini buzish uchun ishlatilishi mumkin emas. Har bir shaxs uchun o'zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish jamiyat a'zolarining burchidir.

Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir (1991-yil 30-sentabr). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la moye bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi,

e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oddida tengligi ta'kidlangan. Respublikada inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman) to'g'risida" qonun qabul qilingan (1997-yil 24-aprel). Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlovchi milliy institutlar — Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ishlab turibdi.

O'zbekistonda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e'tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o'zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ishtirok etib, nutq so'zladi. Ta'kidlash joiz, O'zbekiston ilk bor Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zosi sifatida qatnashdi. Prezident mamlakatda demokratik yangilanishlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda Inson huquqlari bo'yicha kengash doirasidagi ishlarning asosiy vazifalariga to'xtalib o'tdi. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi. «2030- yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan „hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik“ tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda so'z Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish to'g'risida bormoqda», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistondagi inson huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sarhisob qilib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- Inson huquqlari bo'yicha qonunchilik shakllantirildi;
- Mamlakatda inson huquqlarini ta'minlashning bir necha mexanizmlari yaratildi;
- Davlat inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirmoqda;
- Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ma'rifat amalga oshirilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent : TDYU 2022
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi